

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashining
2025-yil 21 - oktabr dagi
21-10/6 -sonli yig'ilish bayonnomasiga
37 -ilova

**«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATINING
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH
SIYOSATI**

Toshkent – 2025-yil.

Mazkur "Open bank" aksiyadorlik jamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati (keyingi o'rinlarda Siyosat deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlariga va boshqa amaldagi qonunlik hujjatlariga hamda "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Siyosat "Open bank" aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda Bank deb yuritiladi)ning korrupsiyaga qarshi kurashish va uning profilaktikasi sohasidagi siyosatini va tashkiliy asoslarini, Bank nomidan va Bank manfaatlarini himoya qilib harakat qiladigan barcha xodimlar va shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etishining asosiy tamoyillarini belgilab beradi.

2. Mazkur Siyosatda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

korrupsiya - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya belgilariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan harakatlar;

korrupsiyaviy xavf-xatar - shaxslar tomonidan Bank va uning tizimlarini suiiste'mol qilish va ularning manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy xarakatlarni sodir etish xavfi;

korrupsiyaviy omillar - Bank xodimlari uchun moddiy va nomoddiy manfaat olish maqsadida qoidalaridan chiquvchi istisnolarni asossiz qo'llash va korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirishga imkon beruvchi jarayonlar;


korrupsiyaviy harakatlar - Bank manfaatlariga putur yetkazuvchi, o'z manfaatlari va/yoki uchinchi shaxslar manfaatlarini ko'zlab o'z xizmat mavqei va vakolatlaridan qonunga xilof ravishda foydalangan holda moddiy va/yoki nomoddiy hak evaziga amalga oshiriladigan harakat yoki harakatsizlik;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi - amaldagi qonun hujjatlari va Bank ichki hujjatlarida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, Bank xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

Bankning boshkaruv organlari - Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi;

kontragent - Bank bilan o'zaro shartnoma asosida munosabat o'rnatmoqchi bo'lgan yoki o'rnatib bo'lgan mijoz;

3. Ushbu Siyosatda belgilangan talab va qoidalar Bankning boshqaruv organlari a'zolari va egallab turgan lavozimlari darajasidan qat'iyyan mazur Bankdigi



openbank	Ro'yxat raqami: I-123
	Sana: "22" oktabr 2025 yil

barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

Shuningdek, Siyosat talab va qoidalari Bank bilan fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida hamkorlik qiladigan jismoniy shaxslarga ham qo'llaniladi.

2-bob. Siyosatning maqsadi va vazifalari

4. Mazkur Siyosat Bankka uning mijozlari tomonidan ishonchning oshirilishiga, Bankning ochiq va qonuniy biznes yuritishiga, mijozlarga adolatli xizmat ko'rsatishni ta'minlashga, korporativ madaniyatini yuksaltirishga va shaffoflik, ochiqlik tamoyillari asosida korporativ boshqarish standartlariga rioya qilishga hamda yuksak ishbilarmonlik obro'sini ta'minlashga qaratilgan.

5. Ushbu Siyosatning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

har qanday shakl va ko'rinishdagi korrupsiya harakatlarini rad etilishi to'g'risida Bankning boshqaruv organlari va Bankning xodimlari o'rtasida yagona tushunchani shakllantirish va korrupsiya xavfini minimallashtirish;

korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabablar va sharoitlarni aniqlash, oldini olish, oshkor qilish yoki yo'q qilish va Bankning boshqaruv organlari, Bankning xodimlari va kontragentlarining murosasizligi bilan ajralib turadigan korrupsiyaga qarshi ongni shakllantirish bo'yicha tizimli, keng qamrovli, izchil, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

Bank yoki Bank nomidan ish kuruvchi shaxslar va Bankning xodimlari uchun korrupsion harakatlarni oldini olish maqsadida Bank tomonidan tegishli tartiblarni o'rnatish;

Bank halol va ochiq faoliyat olib borishini va korrupsiyani har qanday shakl va ko'rinishidan qat'iy nazar uni qabul qilmaslik siyosatini Bank xodimlari, mijozlari, kontragentlari va boshqa shaxslar ongida shakllantirishdan iborat.

6. Siyosatning asosiy maqsadlarini amalga oshirishdagi vazifalari quyidagilardan iborat:


Bankning xodimlariga ushbu Siyosatning prinsiplari va talablarini, korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlarining meyoriy talab va normalarini bilishi va ularga rioya qilish majburiyatini belgilash;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlgi prinsipini ta'minlash;

korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan samarali mexanizmlar, tartib-taomillar va nazorat choralarni yaratish.

3-bob. Korrupsion harakatlar

7. O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlariga muvofiq Bankka yoki Bank nomidan uning manfaatlarini ko'zlab harakat qiluvchi shaxslarga, Bank mijozlariga va kontragentlarilarga, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga hamda ularning xodimlari va vakillariga



(shuningdek, davlat organlari va davlat ishtirokidagi tashkilot va korxonalariga, nazorat qiluvchi organlarga hamda ularning xodimlari va vakillariga):

bevosita yoki bilvosita;

shaxsan o'zi yoki vositachi orqali;

har qanday yo'l orqali va shaklda moddiy qimmatliklar va/yoki mulkiy manfaatlar olinishi yoxud berilishi Bank tomonidan korrupsion harakat deb baholanadi.

Mazkur maqsadlar, tartib va shakllarda sodir qilingan korrupsion harakatlar quyidagilar hisoblanadi:

pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish;

pora olish yoki pora olishda vositachilik qilish;

Bankning xodimi tomonidan amaldagi qonunchik hujjatlarida va Bankning ichki qoidalarida belgilanmagan moddiy qimmatliklarni olish yoxud mulkiy manfaatdor bo'lish maqsadida mansab vakolatlari bilan bog'liq imkoniyatlardan o'zi yoki uchinchi shaxslar manfaatlari (foydasi)ni ko'zlab foydalanish;

qonunchiligiga zid ravishda o'zining mansab vakolatlarini suiste'mol qilish.

8. Bankning xodimlari uchun ushbu Siyosatning 7-bandida ko'rsatib o'tilgan harakatlarni amalga oshirish ta'qiqlanadi. Shuningdek, bevosita yoki bilvosita yoxud uchinchi shaxslar orqali mansabdor shaxsga yoki ishtirokchiga o'z lavozim vazifalarini bajarishlarida biror-bir harakatni yoki harakatsizlikni amalga oshirishlari uchun mansabdor shaxs yojud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxsga biror-bir noqonuniy ustunliklarni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim qilish qat'iy ta'qiqlanadi.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari

9. Bank o'z faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashishning quyidagi asosiy tamoyillariga amal qiladi:


qonuniylik. Bank har qanday munosabatlarni amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hurmat va ishnoq asosida o'rnatadi;

korrupsiyaning har qanday ko'rinishi va shakliga nisbatan murosasizlik. Bank xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, Bank xodimlari va mijozlarga korrupsiyaga nisbatan murosasiz kurashishligi, korrupsiyaga nisbatan hech qanday kechirimlilik mavjud emasligini shakllantirish;

mijozlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi. Mijozlarning amalga oshiradigan har qanday qonuniy huquqlari va manfaatlarini hurmat qilish va himoya qilish;

ochiqlik va shaffoflik. Bankning boshqaruv organlari va xodimlarining faoliyati oshkoraligi hamda ochiqligi;

tizimlilik. Korrupsiyaga qarshi kurashishda tashkiliy, huquqiy, siyosiy, axborot-targ'ibot ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa maxsus choralardan kompleks foydalanish;



davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi davlat va boshqaruv organlari hamda tashkilotlar, shuningdek, mijozlar, kontragentlar bilan hamkorlik qilish;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi. Bankda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar birinchi navbatda ko'rib borilishi hamda samaradorligi oshirilib borilishi;

javobgarlikning muqarrarligi. Korrupsiyaviy harakatlar uchun har bir Bank xodimi va uchinchi shaxs jazo muqarrarligini his qilishi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi lozim.

**5-bob. Korrupsiyaviy holatlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan
faoliyat yo'nalishlari va ushbu holatlardagi
korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi**

10. Bank shartnomaviy munosabatlarga kirishishdan oldin kontragentlarni lozim darajada tekshirish tizimini ("Due diligence") joriy qiladi. Mazkur jarayonlarni joriy qilish maqsadida Bank o'z kontragentlaridan ularning yakuniy benefitsiarlarigacha bo'lgan ta'sisчилari va mulkdorlari haqidagi ma'lumotlarni to'liq taqdim etishni talab qiladi va o'rganib chiqadi.

Bank xodimlariga kontragentlarni va boshqa shaxslarni mazkur Siyosat va amaldagi qonun hujjatlari talablariga zid bo'lgan harakatlarni amalga oshirish uchun jalb qilish ta'qiqlanadi.

11. Bank xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda kasbga oid sifatlari va alohida xizmatlarini odilona va obyektiv baholash asosida eng munosib va qobiliyatli shaxslarni ishga qabul qilish hamda ularning xizmat bo'yicha ko'tarilishini nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyilini (ijtimoiy kelib chiqishi va moliyaviy darajasidan qat'iy nazar, eng qobiliyatli kishilarning rahbarlik lavozimlarini egallashlariga asoslangan boshqarish tamoyili) qo'llaydi.

Bank xodimlarning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, kadrlar zaxirasini shakllantiradi, shuningdek, tizimli ravishda xodimlarning malakasini oshiradi, ularning rotatsiyasini yo'lga qo'yadi.

Bankning Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolari, shuningdek, muhim ahamiyatga ega xodimlari amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi ta'minlanadi.

Bank xodimlariga mukofot pullarini to'lash, ustama haqlar va boshqa turdagi mukofotlarni belgilash jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng va xolis bo'lishi hamda ushbu Siyosat talablariga muvofiq bo'lishi ta'minlanadi.

12. Bank xodimlarining xaqaro va boshqa tashkilotlar taklifiga ko'ra ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlari (ko'rgazmalar, seminarlar,



epenbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-123</u>
	Sana: "№ 22" <u>oktabr</u> 20 <u>25</u> yil

konferensiyalar va shu kabilar)da ishtirok etishiga quyidagi shartlarga rioya qilgan taqdirda ruxsat etiladi:

tadbir amaldagi qonunchilik, mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda Bankning boshqa ichki qoidalar va boshqa hujjatlariga mos kelishi;

tadbir Bank yoki taklif etilgan xodimning rivojlanishiga xizmat qilishi;

tadbir Bank xodimlari tomonidan u yoki bu qarorlar qabul qilinishiga nojo'ya ta'sir qilmasligi, biror-bir noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritishni ko'zlagan yashirin noqonuniy mukofotlash maqsadi bo'lmasligi;

tadbirda ishtirok etishga doir ma'lumotlar oshkor qilingan taqdirda Bank va taklifni qabul qiluvchi yoki taklif etayotgan tomon obro'si/mavqei uchun xatar yuzaga kelmasligi.

13. Bank xodimlari, o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida, Bank nomidan boshqa shaxslarga beradigan yoki boshqa shaxslardan oladigan mehmondo'stlik belgilari, vakillik xarajatlari amaldagi qonun hujjatlari talablariga va ish muomalasi odatlariga muvofiq kelishi lozim.

Bank, mazkur Siyosat talablari va amaldagi qonun hujjatlari talablariga mos kelmaydigan hollarda, davlat xizmatchilari, ularning qarindoshlari yoki ular ko'rsatgan shaxslarning xarajatlarini to'lashi ta'qiqlanadi.

14. Bank qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda homiylik va xayriya yordami sifatida mol-mulk olishi hamda o'zi homiylik va xayriya faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

Bank homiylik va xayriya faoliyatini amalga oshirishda korrupsiyaga qarshi kurashish konun hujjatlari hamda mazkur Siyosat talablariga qat'iy rioya qilishi lozim.



Bank homiylik va xayriya yordami sifatida mol-mulk olganda homiylik va xayriya sifatida olingan mol-mulk tasnifi va qiymati, ushbu mol-mulkni bergan yuridik va jismoniy shaxslar, yuridik shaxslarning ta'sischi, olingan mol-mulkning qanday maqsadlarda sarflanganligi (sarflanishi) haqidagi ma'lumotlarni Internet tarmog'idagi o'zining rasmiy saytida e'lon qilib boradi.

15. Bank tomonidan o'z ichki qoidalar va boshqa hujjatlari loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasidan o'tkazib boradi.

Bank biznes jarayonlari va tartib-taomillarni amalga oshirilishida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bilan bog'liq xodisalarni tahlil qiladi. Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi hamda ijrosini ta'minlaydi.

16. Bank mazkur Siyosat va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ichki qoidalarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish yo'li bilan korrupsiya profilaktikasini amalga oshiradi.

16. Bank xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarish va/yoki Bank manfaatlarini ifodalash chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan shaxsiy



manfaatdorlikka yo‘l qo‘ymamlik choralari ko‘riladi. Bankning maxsus tarkibiy tuzilmalari manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish qoidalariga rioya qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi.

17. Bank tomonidan doimiy asosda Bankning tarkibiy tuzilmalari faoliyati ustidan ichki va tashqi audit (va/yoki nazorat) nazorat tadbirlari o‘tkaziladi. Nazorat tadbirlari doirasida tarkibiy tuzilmalar tomonidan biznes jarayonlarning bajarilishi, amalga oshirilayotgan to‘lovlarning qonuniyligi, iqtisodiy asoslanganligi, xarajatlarning maqsadga muvofiqligi yuzasidan tekshiruv o‘tkazib boriladi.

18. Bank, sodir etilgan yoki sodir etilishi ehtimoli bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish uchun “ishonch telefoni”, maxsus elektron pochta va boshqa axborot kanallarini tashkil etadi.

Bank o‘z xodimlaridan korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga, mazkur Siyosat hamda Bankning ichki qoidalariga, xususan Obod ahloq qoidalariga qat’iy rioya qilishini talab qiladi.

Bank xodimlari, boshqa xodimlar tomonidan Bank bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan kontragentlar, mijozlar va boshqa shaxslar harakati (harakatsizligi)ning qonuniyligi yoki etika qoidalariga mosligi yuzasidan shubha tug‘ilganda, zudlik bilan tashkil etilgan “ishonch telefoni”ga yoki maxsus elektron pochta va boshqa axborot kanallariga xabar berishi lozim. Xabar bergan shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar oshkor qilinmasligi va uning qonuniy haq huquqlari to‘liq himoyalaniishi Bank tomonidan kafolatlanadi.

Bank o‘z vakolati doirasida qoidabuzarlikka oid asosli axborotni taqdim etgan shaxsga doir ma’lumotlar maxfiyldigini ta’minlaydi.

19. Bank o‘z xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslarga quyidagi yo‘llar orqali korrupsiyaga qarshi qonunchik normalari, tamoyillar, chora-tadbirlar haqida xabar beradi va sharhlar, tushuntirishlar beradi:

mas’ul tarkibiy tuzilma orqali elektron manzil va boshqa aloqa vositasi orqali Bankda xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qabul qilingan normalar va talablarga rioya qilinishi muhim ekanligiga doir doimiy xabarlar yuborish;


xodimlarni Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishga doir rejaga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo‘yicha muntazam va tizimli ravishda bir yilda kamida bir marta o‘qitilishi hamda testdan o‘tkazilishini ta’minlash;

yangi xodimlarni ishga kabul kilayotganda ushbu Siyosat va Bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga doir boshqa ichki hujjatlari bilan albatta tanishtirish;

Bankdagi korrupsiya xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi o‘qitishning qo‘shimcha dasturlarini belgilash.

6-bob. Yakuniy koidalar

20. Bankda korrupsiyaga oid berilgan xabarlar bo‘yicha tegishli vakolatli




tuzilmalar va shaxslar tomonidan o'rganishlar amalga oshiriladi hamda zarur hollarda xizmat tekshiruvlari o'tkaziladi va natijasi bo'yicha tegishli dalolatnoma yoki ma'lumotnoma tuziladi.


21. Mazkur Siyosat, korrupsiyaga qarshi qonunchilik normalari, va/yoki Bankning ichki qoidalari va boshqa hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan korrupsiyaga qarshi kurashish normalarini buzgan Bank xodimlari va shaxslar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

22. Mazkur Siyosatga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

23. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

24. Ushbu Siyosatning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.




Ro'yxatdan o'tkazildi
Ro'yxat raqami: I-123
Sana: "№ 22" oktabr 20 2020 yil

YURIDIK XULOSA
(ichki qoidani huquqiy ekspertizadan o'tkazish to'g'risida)

Toshkent shahar

“20” _____ 2025 yil

Ekspertiza o'tkazuvchi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning (keyingi o'rinlarda “Bank” deb yuritiladi) Yuridik boshqarmasi.

Ekspertizadan o'tkazilgan me'yoriy hujjat nomi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (keyingi o'rinlarda “ichki qoida” deb yuritiladi).

Ekspertiza o'tkazishda foydalanilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari, hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar (keyingi o'rinlarda “qonunchilik va me'yoriy hujjatlar”).

Mazkur ichki qoida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish va uning profilaktikasi sohasidagi siyosatini va tashkiliy asoslarini, Bank nomidan va Bank manfaatlarini himoya qilib harakat qiladigan barcha xodimlar va shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etishining asosiy tamoyillarini belgilab beradi.

Ushbu ichki qoida ishlab chiqishda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilingan.

Mazkur ichki qoida, agar unda boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Ushbu ichki qoidaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning Kuzatuv kengashining qarori asosida kiritiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

“Open bank” aksiyadorlik jamiyatning
Yuridik boshqarmasi boshlig'i
S.I. Salimov

